


***BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI AXBOROT-
KUTUBXONA MARKAZI
ILMIY-METODIKA XIZMATI***

*O'zbek ma'rifatparvar shoiri
Avaz O'tar
tavalludining 140 yilligiga*

“MA'RIFATPARVAR IJODKOR”



*metodik-bibliografik
qo'llanma*



ANDIJON-2024



Ikki asr chegarasida, XIX-arning so'nggi choragi – XX-asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xorazm adabiy-falsafiy muhitining taniqli namoyandalaridan biri ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'lidir.

Avaz O'tar milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yetuk

namoyandalaridan biri bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkordir. U juda qisqa umr ko'rishiga qaramasdan, sermazmun hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Avaz O'tar o'zining yuksak iste'dodi, she'rlaridagi xalqchillik ruhi, zamon va makondagi nosozliklarga qarshi g'oyat o'tkir fikrlari bilan hayotlik davridayoq xalq orasida dovrug'dor shoirga aylangan edi. Shoir ijodiga bo'lgan e'tibor o'z davridanoq boshlandi, uning o'tkir xalqchil g'oyalarni singdirgan g'azallari, muxammasu musammanlari, nafaqat, oddiy xalqning, balki ilg'or fikrli adabiyot muhiblarining hamda nomdor, ko'zga ko'ringan qalam ahllarini ham nazariga tushgan.

Avaz O'tar o'z xalqining muboriz kuychisi sifatida zamondosh va hamyurtlarining e'tiboriga tushadi va yuksak baholanadi.

Uning ijodida erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar paydo bo'la boshlaydi, bu davrda shoir yuksak insoniy fazilatlarni, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik she'rlar, qit'alar, ruboiylar yozdi. Avaz O'tar ijodida alohida o'rin tutgan hajviy she'rlar turkumi — «Faloniy» ham shu davr mahsulidir.

Avaz O'tar «Millat», «Hurriyat»; «Topar erkan, qachon», «Xalq», «Zamon» va boshqa she'rlarida millat taqdiri va kelajagini yangicha talqin etadi. Ayrim she'rlari o'sha davr vaqtli matbuoti («Oyina», «Vaqt», «Mulla Nasriddin» va boshqa)da bosilgan. Uning 2 ta devoni («Saodat ul-iqbol», «Devoni Avaz») va qator bayozlarga kiritilgan g'azallari yetib kelgan. Devonlarining qo'lyozma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. 942, 7102, 3451) saqlanadi.

Respublikada maktablar, ko'cha va xiyobonlarga Avaz O'tar nomi berilgan. Xivada uy-muzeyi tashkil etilgan, haykali o'rnatilgan. U haqda badiiy asarlar yaratilgan (E.Samandar «Erk sadosi» dostoni, A.Bobojon «G'azal fojiasi» dramasi, S.Siyoyev «Bir chora zamon istab» qissasi va boshqa).

Avaz O'tar ko'p ijodiy fursatlarini g'azal yozishga bag'ishlagan shoirlardan. G'azal – inson qalbining armonli ohanglari, dardli ruhning alohida va yaxlit manzarasi. G'azalnavislik – bu, ruh haqiqatlarini aks ettirishdir. Bu ma'nolar xoh ishqiy mavzuda bo'lsin, xoh falsafiy yoki axloqiy yo'nalishlarda bo'lsin buning ahamiyati yo'q, hamma gap, tiriklik yoki o'lim mohiyatida bahsga kirishgan Ruhning hurriyatida. Chunki ruhiy ko'tarilish bo'lmagan yurakda aqliy balandlik bo'lishi mushkul.

Avaz O'tar - hayot yo'li

Avaz O'tar o'g'li 1884 yilning avgust oyida Xiva shahrida, sartarosh oilasida dunyoga keldi. Shoirning otasi Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li xalq orasida “usta” nomi bilan mashhur bo'lib, sartaroshlik faoliyati bilan shug'ullangan. Garchi oddiy bir kasb bo'lib ko'rinsa-da, sartaroshlik O'rta Osiyo mintaqasida anchayin hurmat-e'tiborga loyiq, qadrlanadigan soha hisoblanardi. Avvalo, sartarosh ahli ko'pchilik bilan muloqotda bo'lib, zamonaning eng so'nggi yangiliklaridan boxabar, turfa hangomalarni yaxshi biluvchi aksar odamijon insonlar bo'lishgan. Qolaversa, eng muhim ishlardan biri, fuqaro farzandlarining “qo'lini halollash”, ya'ni xatna marosimlarini amalga oshirishni xalq ana shunday tan olingan sartaroshlarga ishonib topshirganki, bu jihatdan ham ular hurmat-e'tiborga loyiq zotlar hisoblangan.

Mutaxassislar Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li shunchaki oddiy sartarosh emas, balki saroy sartaroshi bo'lganligini, zamonasining mashhur shoir va san'atkorlaridan Ogahiy, Komil, Bayoniy kabilar bilan qalin do'st bo'lganligini yozishadi. Shunday ziyolilar davrasida yurgan inson o'z farzandining munosib ta'lim-tarbiya olishiga alohida ahamiyat berishi tabiiy edi. Shu tariqa Avaz boshlang'ich maktabga borib, tez orada xat-savod chiqaradi. Eski maktabni tugatgach, tahsilni Xivadagi Madamin Inoq madrasasida davom ettirganligi aytiladi. Avazning adabiyotga havasi juda erta uyg'onib, otasining shoir do'stlari ta'srida dastlabki she'rlarini mashq qila boshlaganligi ma'lum. Madrasada o'qib yurgan davrida Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiylarning ijodi bilan yaqindan tanishdi ularga ergashib o'z ijodiyotini takomiliga yetkaza boradi. Shoir hayotini maxsus o'rgangan tadqiqotchilar uning 18 yoshlarida shoir sifatida xalq o'rtasida tanilganligini qayd etishadi. Shu tariqa yosh shoir qalamiga mansub she'rlar sozanda va xonandalar tomonidan kuyga solinib aytila boshlanadi. Adabiyotlarda shoirning ustozlari Bayoniy, Tabibiy, zamondoshi Jumaniyoz Xivaqiy, do'sti Hasanmurod Qori

– Laffasiy va boshqalar uning iste'dodiga yuksak baho berganliklari qayd etiladi.

Muhammad Rahimxoni soniy (Feruz) ham shoh, ham shoir bo'lganligi bois ijod ahliga ixlosi balandligi bilan ajralib turganligi va iste'dod egalarini saroyda jamlab, ularga har tomonlama sharoit yaratib berishga katta e'tibor qaratganligi tarixdan ma'lum. Ana shunday marhamatdan Avaz ham benasib qolmaydi. Yosh shoirning yuksak iste'dodidan xabar topgan hukmdor uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz etib tayinlaganligi manba va adabiyotlarda o'z tasdig'ini topgan. Mutaxassislar ta'biri bilan aytganda, Tabibiy juda ko'p ilm ahliga g'amxo'rlik qilganidek Avazga ham axloq, ilm va she'riyat bobida ko'p narsa o'rgatadi. Shuning uchun shoir turli davrlarda yozilgan she'rlarida Tabibiyni o'ziga ustoz bilib zo'r hurmat bilan tilga oladi. Quyidagi misralarda u nazm ilmida ustози Tabibiydek bo'lish orzusi ekanligini, she'rlaridan bahramand bo'lgan el ustozingga tasanno deyishlari eng katta sharaf ekanligini uqtiradi.

Ne g'am emdi, Avaz, nazm ilmida bo'lsang Tabibiydek,
Ki derlar, ko'rgan el nazmingni ustodinga sallomno.

Ilk ijodida dunyoqarashida muhim ijtimoiy-hayotiy masalalardan yiroqlashib, xonu beklarga madhiyalar, qasidalar bita boshlaydi, Avaz O'tarning qarashlarida sekin asta o'zgarishlar yuz beradi. Saroy muhitidagilar xalqparvar va hurfikrli shoirning barcha hatti-harakatlarini kuzatib, ta'qib ostiga olishadi va unga qarshi fitna tayyorlanadi. Ayg'oqchilar shoirning isyonkorlik va hurfikrlik ruhidagi she'rlarni saroy a'yonlariga topshiradilar. Bu she'rlar bevosita xonu aroy a'yonlariga qarshi ruhda yozilgan edi:

Jahonda shumu badbaxt ush kishidurkim, sahobu shom,
Berur bechora-yu dardmandlarga jabr ila ozor.
Alardan ibrat olmay o'zga aylar kibrini pesha;
Magar bilmaski. davron bir kuni qilg'ay u oni ham xor.

Avaz O'tar o'g'li zamondoshlarining xotiralariga qaraganda, bu she'rni o'qigan xon shoirni "toshbo'ron qilish" haqida farmon beradi, o'sha vaqtda kimdir "taqsir, oliy hazratlari, u jinni bo'lgan", deb vaziyatni bir oz o'zgartirib yuboradi va xonni saroy darvozasiga to'plangan olamondan xabardor qiladi. Noiloj qolgan xon buyruqni 200 darra qamchi urish bilan almashtiradi. Xon bu bilan qanoatlanmaydi. Avazni "jinni" deb e'lon qilib, kishanlab, Oqmasjid qishlog'idagi Boboeshon qabristoniga yuboradi.

Avaz O'tar o'g'li 1909 yilning qishida qabristondan uyiga qaytib, ota kasbi sartaroshlik bilan ham shug'ullanadi. Shoir jismoniy toliqqan, kasalga

chalingan edi. Ammo u ruhan hamon tetik bo'lib, ta'qiblarga qaramay, o'zining ijodiy va ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettiradi.

Avaz kamolotga yetgan bir paytda sil kasaliga chalinadi va davolanish uchun Kavkazga (1905—1906) boradi. Avaz O'tar Kavkazga borayotib Bokuda bir oz muddat to'xtaydi. Bokuda shoir ozarbayjon demokratlari bilan uchrashib do'stlashadi va ular bilan keyin ham ijodiy aloqada bo'ladi. Kavkaz safari Avaz ijodida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U safar davomida Rusiya va Kavkaz xalqlari hayoti, madaniyati, adabiyoti va boshqalar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, ozarbayjon xalqining ilm-fan, madaniyat yangiliklari bilan qiziqdi. U rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib bordi. Toshkent va Samarqandda chop etilgan matbuot bilan bevosita aloqada bo'lib, yozgan g'azallaridan ba'zilarini ularda nashr ham ettirdi.

XX-asr boshlarida ko'zga tashlanayotgan milliy uyg'onish, istiqlol g'oyalari Avaz O'tar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatganligi shubhasiz. Garchi jadidchilik g'oyalari ruhida oshkora faoliyat olib bormagan bo'lsada, uning ma'rifatga yo'g'rilgan she'rlarida ilgari surilgan fikrlar jadidchilik g'oyalari bilan hamohanglik kasb etishini kuzatish mumkin. Shoir ijodida shu davrda bo'y ko'rsatgan erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar shunga dalolat qiladi. Bu davrda shoir ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi she'rlari bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarni, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik she'rlar, qit'alar, ruboiylar ham yozganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi.

Avaz O'tar qisqa umr ko'rishiga qaramasdan, barakali ijod etdi va avlodlarga o'zidan salmoqli nazmiy meros qoldirdi. Sil kasali asorati bilan shoir, afsuski, 1919 yili 36 yoshida vafot etadi. Tadqiqotchilar shoir ijodi juda ham rang-barang bo'lib, qamrovi nihoyatda keng ekanligini, u mumtoz adabiyotimizdagi g'azal, muxammas, mustazod, musamman, murabba', mulamma', tarje'band, soqiynoma, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlarda ijod qilganligini e'tirof etishadi.

AVAZ O'TAR MA'RIFATPARVAR SHOIR

Avaz O'tardan bizga boy poetik meros qoldi. U hayotlik vaqtidayoq she'rlarini bir joyga jamlab devon tartib qildi va ularni “Saodat ul-iqbol” (“Baxtli iqbol”) deb nomladi. Shoir tuzgan devonlarini 1908 yilda xattot mulla Boltaniyoz Qurbonniyoz o'g'luga berib ko'chirtirgan. Shoirning bu devonlari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmokqda. Bundan keyin ham Avazning she'rlari

to'planib, ular devon holiga keltirilgan. Uning g'azallari Xivada litografiya usulida ham o'zi hayot vaqtidayoq chop etilgan edi. Avaz ijodidan namunalar Xorazmda ko'chirilgan turli xil bayoz va tazkiralardan munosib o'rin oldi. Shoirning asarlari "Oyna", "Vaqt", "Mullo Nasriddin" kabi vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan. Inson va hayotni, sevgi va sadoqatni o'z ijodining asosi qilib olgan Avaz sevgini sadoqatsiz, mehrni oqibatsiz tasavvur qilolmaydi. Bu esapuyir lirikasining yetakchi g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Avaz O'tarning Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz va boshqa shoirlarning g'azallariga bog'langan taxmislari haqida ham shu xildagi fikrlarni aytish mumkin. Shoir ozarbayjon adabiyotining buyuk siymosi Muhammad Fuzuliyning hur muhabbat va shaxs erkinligi masalasiga bag'ishlangan "Yozmishlar" radifli g'azaliga go'zal muxammas bog'laydi. Muxammasda shoir insonlarning baxtli bo'lishlari ijtimoiy tuzum bilan ham mustahkam bog'liq degan xulosaga keladi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etish Avaz O'tar ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Bu davrga kelib bir paytlar butun dunyoni ilm-ma'rifat va ko'plab kashfiyotlar bilan lol qoldirgan islom sharqi mamlakatlari, ayniqsa, O'rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar qoloqlikka yuz tutgan edi. Bu qoloqlik ko'plab sabab va omillar bilan izohlanadi. Lekin asosiylaridan biri Yevropadagi Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotib, mintaqa hududlari xalqaro savdo va madaniy yutuqlar almashinuvidan chetda qolib ketganligi bilan bog'liq edi. Boz ustiga kechagina dunyoviy va aniq fanlar o'qitilishiga katta o'rin ajratgan madrasalar, endilikda adabiyot va sxolastikadan nariga o'tolmay qolgan edi. To'g'ri, islom sharqi madrasalari uchun diniy fanlar o'qitilishi shart ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisa. Lekin dunyoviy va aniq fanlarga urg'u bermasdan zamon bilan bo'ylashish imkondan tashqari ekanligi hukmron sulola vakillari va ulamolarni bu paytga kelib ko'pam qiziqitirmay qo'ygan edi. Bularning bari ilm-ma'rifatdan uzoqlashish, jaholatning avj olishi bilan bevosita bog'liq edi. Jahondagi o'zgarish va taraqqiyotdan qisman bo'lsa-da xabardor bo'lgan ijodkor ziyolining bu masalaga shunchaki tomoshabin bo'lib, qo'l qovushtirib turishi mumkin emasdi. Ilm-ma'rifatga oshnolikka, xorijiy tillarni o'rganishga da'vat uning "Til", "Maktab" singari turkum she'rlarida yaqqol ko'rinadi.

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.
G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilmu hunarlar rivoji andin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g'ayrat eting, foydali kondur.
Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'quganlar bori yaktoyi jahondur.
Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin ani bag'ri to'la qondur.

Ilm-fanga oid zamonaviy ma'lumotlar rus va yevropa tillarida bitilgan bo'lib, ularni o'rganish uchun o'sha kezlarda ham shu tillarni bilish talab etilardi. Mahmudxo'ja Behbudiy singari aksariyat dunyodan xabardor mutafakkirlar, ayniqsa, yangi davrda aholi farzandlarini til o'rganishga da'vat etib kelganligi shundan. Bu hali-hanuz davom etib kelayotgan va o'z dolzarbligini sira yo'qotmaydigan mangu mavzu ekanligi eng yangi davrda ham o'zini namoyon etayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Avaz O'tarning bu boradagi kuyunchakligini tushunish mumkin. Uning talqinida xorijiy tillarni egallash jahon bilan tillashuv, muloqot vositasidir. Xorijiy tillarni ona tilidek erkin bilishga undar ekan, shoir ota-onalarni farzandlarini ilm-fan uyiga yuborishga da'vat etib, unda o'qiganlar jahonda ilg'or shaxslar bo'lib yetishishini bashorat qiladi hamda o'zining til bilmasligidan o'kinib, shundan bag'ri mudom qon ekanligini, yosh avlod ham shunday kuyga tushib qolmasligi lozimligini ta'sirchan misralar orqali nazmda ifoda etadi.

Shoir qoloqlikdan, jaholatdan qutilishning birdan bir chorasi zamonaviy ta'lim, maktab-maorif ekanligiga qattiq ishonadi. Bunga nafaqat ishonadi, balki ilg'or matbuot orqali bilganidan tashqari, zaruriy sayohati davomida bunday maktablar qanday natija berishi mumkinligini o'z ko'zi bilan ko'rib, guvohi ham bo'lgan. Shoirning "Maktab" deb ataluvchi she'ri ushbu fikrni to'la tasdiqlaydi.

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab.
Dilu jon birla el maktab ocharga ijti hod etsin,
Nedinkim bizni g'am, qayg'udin ozod etgusi maktab.

Ko'ngullarning sururi, dag'i ko'zlar nuridur farzand,
Alarning umrini albatta obod etgusi maktab.
Ota birla onaga farz o'qutmoq bizni majburiy,
Ki bizni yaxshilik qilmoqda mu'tod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,

Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi maktab.
Bu ne navmidlikdur, maktab ochsaq, oqibat bizni
Arusi kom ila maqsudga domod etgusi maktab.

Avaz, himmatni qil oliy ocharga emdi maktabkim,
Baloyi jahlu nodonlikni barbod etgusi maktab.

Shoir o'z millati jaholat botqog'iga botib tanazzulga yuz tutganligini e'tirof etar ekan, jonu dil bilan maktab ochishga bel bog'lashga da'vat etadi. Bu paytda maktablar xususiy bo'lgan va ularni ochish va yuritishni davlat o'z zimmasiga olmagan. Shunday ekan, shoirning bu da'vati qalbi ziyodan xoli bo'lmagan millat boylari, kayvonilariga qaratilganligini anglash qiyin emas. Zero, oddiy xalq istagan taqdirda ham bu murakkab vazifaning uddasidan chiqa olmasdi. Shoir ko'ngillar sururi va ko'zlarning nuri farzand ekanligini ta'kidlab, maktab shaksiz ularning umrini obod etishini uqtiradi. Qaysiki bir millatga xuddi bizdagi kabi inqiroz shamoli yetsa, maktab albatta unga mustahkamlik bino etishiga shoirning ishonchi komil. She'r oxirida shoir o'ziga da'vat etib, oliy maktab ochish yo'lida himmat kamarini bog'lashni aytar ekan, maktab tufayli johillik va nodonlik barham topishini uqtiradi. Bu asli o'z timsolida shoirning millat akobirlariga da'vati edi hamda bu da'vat, ayniqsa, Xorazm misolida izsiz ketmaganligini keyingi voqealar rivoji tasdiqlaganligiga tarix guvohlik berib turibdi.

Bu g'azal bugun yozilgandek, davr kun tartibiga qo'ygan buyuk ishlar haqida fikr yuritayotgandek bizga xizmat qiladi.

Avaz O'tarning hajviy asarlarida esa chor chinovniklari va mahalliy amaldorlar, davlat orttirish yo'lida aldamchilik, riyokorlik qiluvchi boylar, sudxo'rlar va shularga o'xshash razil shaxslarning qilmishlari fosh etilgan.

Avaz O'tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning keskinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, falakni "g'addor", zamonani esa "kaj" deb ataydi. Shoir ijtimoiy ruhdagi she'rlarida o'zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilgan. "Hurriyat", "Sipohiylarga", "Xalq", "Topar ekan qachon?" "Fidoyi xalqim", "Ulamolarga" kabi qator asarlarida Avaz O'tarning kelajak xususidagi fikrlari o'z aksini topgan.

Avaz O'tar ijtimoiy she'riyati zahirida zulm va zo'ravonlik hisobiga to'plangan boyliklarga nafrat, ikki tomonlama zulm ostida qolgan mehnatkash xalq hayotiga achinish tuyg'usi yotadi. Shoir o'sha jamiyatda yashab turgan kishilar o'rtasidagi tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni ro'y-rost ochib tashlaydi.

Chor Rusiyasining birinchi jahon urushiga qo'shilishi xorazmliklar boshiga ham yangidan-yangi kulfatlarni yog'dirdi. Mehnatkash xalq ahvoli battar og'irlashdi, soliqlarning ko'pligidan xalqning tinkasi quridi. Avaz O'tar och-yalang'och ahvolga tushib qolgan xalq hayotini qo'rib qattiq achinadi:

Yo'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lg'an bag'ri yuz ming pora xalq...
Ey, Avaz, bo'lmas shuningdek barho ovvora xalq.

Avaz O'tar o'z ijodining dastlabki davrlarida xalqning azob-uqubatda yashaganligini ko'rib zorlangan va ozodlikka chiqish yo'llarini tushunib yetmagan bo'lsa, endi ikki tomonlama zulm va qoloqlikdan qutulish mumkin ekanligini angladi. Uning ijodida ozodlik, erkin-farovon hayot haqidagi fikrlar birinchi o'ringa chiqdi. Xivada 1917 yil aprel oyida xalq ozodlik uchun chorizm siyosatiga qarshi kurashga otlandi. Avaz O'tar bu voqealarga bag'ishlab o'zining "Hurriyat" she'rini yozdi:

Siyosat mahv bo'ldi, yashasun olamda hurriyat,
Bori el ittifoq ila jahonni aylasun jannat...

Shoir she'rda hurriyat natijasida xalq boshiga tushgan kulfatni, adolatsizlikni kuyinib kuylaydi, xalq manfaatlarini himoya qilib she'rlar yozdi. Elning orzu-umidlarini hamma narsadan yuqori qo'ydi. Xalq saodati uchun kurashishni baxt va ezgulik deb bildi. Bu ezgu ish uchun jonini qurbon qilishga ham tayyor edi:

Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim,
Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,
Buldur maqsadi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo'liga davron,
Yurur ustimdan avlodi zamonim.
Na yaxshi o'ylakim ma'qulu manzur,
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

Avaz O'tar o'zining butun ijodiy kuchini xalqiga xizmat qilishga bag'ishladi. Shoir kishilarga baxt-saodat, ozodlik haqida yonib kuyladi. Shu

boisdan bo'lsa kerak, o'zining devoniga ramziy ma'noda “Saodat ul-iqbol” deb nom qo'ydi. U vafotidan sal ilgari yozgan she'rlaridan birida:

Xush ul ko'nglum, kelar bir qun baxt bog'idagi ra'no,
Ko'kargay mavj urub, qirlarda lola bo'lgusi paydo.
Mani yod etgay avlodim, mozorimni o'rab guldin,
Ishonchim shundadir bo'lg'ay mozarim bir ziyoratgoh.

Qabih onlarda erkin kuyladim, do'stlar, birodarlar,
Ezilgan elga, bo'lg'ay bu zamon iqbol yoruq dargoh.
Avaz, o'lgan bilan jisming, qolurki o'chmagay noming,
Va komu istagishta g'ov bo'lolmas bo'lsada Doro!

- deb yozganida tamoman haq gapni aytgan edi. Shoirning bu istagi va yoniq orzulari bizning davrimizda ro'yobga chiqdi. Uning nomiga maktab, muassasa, jamoa va davlat xo'jaliklari, ko'cha va xiyobonlar qo'yilgan. Shoir yubileylari o'tkazilib, kitoblari qayta-qayta nashr etilmoqda, g'azallari sozanda va go'yandalar tomonidan ashula qilib aytilmoqda, adabiy merosi olimlarimiz tomonidan o'rganilmoqda, ijodi maktab va oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda.

AVAZ O'TAR UY-MUZEYI

AVAZ O'TAR UY-MUZEYI — adabiy memorial muzey. Avaz O'tar tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Ichan qal'ada u yashagan uy o'rnida qurilgan binoda ochilgan (1984). Muzey oldida shoirga haykal o'rnatilgan. U 4 xonadan iborat:

- 1-xonaga Avaz asarlaridan namunalar, suratlari, albomlar, ustoz va shogirdlarning kitoblari va b. qo'yilgan;
- 2-xonani shoirning otasi Polvonniyozning kiyim-boshlari, sandiq, ko'rpa-to'shak, o'choq, chiroq, xurjun, miltiq va b. egallagan;
- 3-xona Avaz ijodxonasi: stol, kursi, lavh, shamdon, oyna, siyohdon, qalamdon bor, tokchaga kitoblar terilgan, shuningdek shoirning kiyim-kechaklari va b. qo'yilgan;
- 4-xona mehmonxona, unda dasturxon, choynak-piyola, patnis, ko'rpacha, naqshli stol, soat va b. bor, devoriga so'zana, dutor osilgan. Muzey eksponatlari 3 mingga yaqin.

AVAZ O'TARNING ASOSIY ASARLARI

1. Ўтар, Аваз. Танланган асарлари / Аваз Ўтар ; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси А. С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти. – Тошкент : Фан. – 1951. – 74 б.
2. Ўтар, Аваз. Танланган асарлари / Аваз Ўтар. – Тошкент : Ўздавнашр. – 1956. – 319 б.
3. Ўтар, Аваз. Хуррият. Тил. Мактаб / Аваз Ўтар // Педагогика тарихидан хрестоматия. – Тошкент : Ўқитувчи. – 1993. – Б. 138-141.
4. Ўтар, Аваз. Мактаб. Фидойи халқим. Қитъалар / Аваз Ўтар // Тил ва адаб. таълими. – 2014. – № 6. – Б. 28.
5. Ўтар, Аваз. Тил. Мактаб / Аваз Ўтар // Ўқитувчилар газетаси. – 1984. – 25 авг.

AVAZ O'TAR HAYOTI VA IJODI HAQIDAGI ADABIYOTLAR

6. Аваз Ўтар // Маънавий юлдузлари. – Тошкент, 1999. – Б. 368-372.
7. Аваз Ўтар // Педагогика тарихидан хрестоматия. – Тошкент, 1993. – Б. 138-140.
8. Каримов, Г. К. Аваз Ўтар // Ўзбек адабиёти тарихи. 3 китоб. – Тошкент, 1975. – Б. 256-268.
9. Каримов Г. Аваз Ўтар // Ўзбек адабиёти. – Тошкент, 1979. – Б. 158-163.
10. Қобулов Н. Аваз ва унинг адабий муҳити. – Тошкент, 1987. – 200 б.
11. Ҳаққул, Иброҳим. Аваз Ўтар / Иброҳим Ҳаққул // Адабиёт фарзандлари. – Тошкент, 1990. – Б. 122-136.
12. Раҳимова О. Аваз Ўтарнинг “Тил” ғазали устида интерфаол усулида ишлаш: [7-синф “Она тили” дарсида] // Тил ва адабиёт таълими. – 2004. – № 1. – Б. 18-20.
13. Аваз Ўтар // Тил ва адабиёт таълими. – 2014. – № 6. – Б. 28.
14. Ҳаққул, Иброҳим. Ишқ дарди ва исён шоири : [Аваз Ўтар таваллудининг 135 йиллигига] / Иброҳим Ҳаққул // Тил ва адабиёт. – 2019. – № 7. – Б. 10-12.

15. Очилов, Э. Аваз Ўтар ижодида Навоий анъаналари / Э. Очилов // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019. – № 4. – Б. 9-14.

16. Қобулова, З. Аваз ва Амирий: [Аваз Ўтар таваллудининг тавал. 135 йиллигига] / З. Қобилова // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019. – № 4. – Б. 14-17.

17. Асадов, М. Аваз соқийномасининг ғоявий-бадiiй хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019. – № 4. – Б. 17-21.

18. Jabborov, N. Umr –foniy, soʻz-boqiy // Maʼrifat. – 2024. – 21 fevr.

KUTUBXONACHIGA

Maʼrifatparvar shoir Avaz Oʻtar oʻgʻlining asarlari xalq qalbidan chuqur joy olganki, unda jaholatga, nodonlikka, haqsizlikka ochiqdan-ochiq qarshi chiqish, mehnatkashlarni hurriyatga daʼvat etish, insonning erk-huquqi, burchi va goʻzal odob axloqi haqida qaygʻurish, eng yaxshi insoniy fazilatlarni targʻib etish, xalqqa maʼrifat va ziyo taratish, shaxsning jismoniy va maʼnaviy kamoloti toʻgʻrisidagi gʻoyalar oʻz ifodasini topgan. Shoirning bu gʻoyalari bizning zamon ruhiga hamohang boʻlib, hali xanuz oʻzining maʼrifiy tarbiyaviy qimmatini yoʻqotmaganligi tabiiydir.

Oʻquvchi yoshlarni Avaz Oʻtar oʻgʻlining maʼrifiy pedagogik merosini oʻrganish jarayonida ilm oʻrganish, tarbiya va tarbiyat, doʻstlik va mehr, sahovat, sabr-toqat va qanoat, rostgoʻylik va mehnatsevarlik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash boʻyicha kutubxonalarda, maktablarda sinfdan tashqari mashgʻulotlar oʻtkazish mumkin. Avaz Oʻtar oʻgʻlining hayoti va ijodi ilm ahlini koʻpdan beri qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa, tarix, falsafa, huquqshunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlarimizning xizmatlari tahsinga sazovordir. Tadqiqotchilar Avaz Oʻtar oʻgʻlining hayoti va ijodini diqqat qilib, uning oʻz davri maʼrifatparvar shoirlari oʻrtasidagi mavqeini va oʻzbek adabiyotidagi oʻrnini, ijtimoiy-siyosiy va qarashlarini koʻrsatib berishga harakat qilganlar. Shoir hayoti va ijodiga atab oʻtkazilishi mumkin boʻlgan tadbirlar:

Davra suhbatlari

"Avaz Oʻtarning hayot yoʻli"

"Avaz Oʻtar - maʼrifatparvar shoir"

"Shoir ijodiga bir nazar"

"Shoirning oʻzbek adabiyotida tutgan oʻrni"

She'riyat va mushoira kechalari

"Nazm aro fozili bebaho ijodkor"
"O'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi"
"O'zbek adabiyotining sermahsul ijodkori"
"Yuksak iste'dod sohibi"

Suhbat

"Ma'rifatparvar shoirni yodlab"
"Avaz O'taro'z xalqining muboriz kuychisi"
"Avaz o'tarning ma'rifiy-axloqiy qarashlari"
"Erkparvar shoir"
"Isyonkor qalb va ijod sohibi"

Axborot-kutubxona muassasalarida keng kitobxonlarga mo'ljallangan mushoira kechasi o'tkazish tartibi

Axborot-kutubxona muassasalarida mushoira kechasini o'tkazishdan maqsad buyuk Avaz O'tar ijodiy faoliyatini targ'ib qilishdan iboratdir. Mushoira kechasi maktab, litsey o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida tashkil etilib, o'quvchilarga Avaz O'tar devonlari, she'r va g'azallarini keng targ'ib qilish.

Mushoira kechasiga tanlangan mavzu bo'yicha 10 kun oldin senariy yoziladi, taklifnoma va dastur ishlab chiqadi, tadbirga ishtirok etuvchi mutaxassislariga taklifnomalar yuboriladi, o'quvchilarga Avaz O'tar ijodidan tanlab yodlash uchun tavsiyalar beriladi, tadbir o'tkazilishi uchun joy tanlanadi. Tadbirga adabiyotshunoslar, yozuvchilar, shoirlar hamda o'qituvchilar taklif qilinadi. Tadbir o'tkaziladigan zalda Shoir hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish maqsadga muvofiq.

"NAZM ARO FOZILI BEBAHO IJODKOR" mavzusida o'tkaziladigan mushoira kechasi senariysi

O'tkazilish joyi: _____
O'tkazilish vaqti: _____
Qatnashuvchilar: _____
Hamkor tashkilotlar: _____

Olib boruvchi: Assalomu alaykum bugungi tadbirimizga tashrif buyurgan she'riyat shaydolari, hurmatli mehmonlar, aziz o'quvchilar! Bugungi "Nazm aro fozili bebaho ijodkor" mavzusidagi O'zbek ma'rifatparvar shoiri Avaz O'tar tavalludining 140 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan mushoira kechasiga xush kelibsizlar.

Avaz O'tar milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkordir. U juda qisqa umr ko'rishiga qaramay, sermazmun hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Avaz O'tar o'zining yuksak iste'dodi, she'rlaridagi xalqchillik ruhi, zamon va makondagi nosozliklarga qarshi g'oyat o'tkir fikrlari bilan hayotlik davridayoq xalq orasida dovrug'dor shoirga aylangan ijodkordir.

Ushbu tadbirni tashkil qilishdan maqsad shoir ijodi bilan yaqindan tanishish va go'zal she'rlaridan baxramand bo'lishdir.

Bugungi tadbirimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi Andijon viloyati boshqarmasi, Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi hamkorligida tashkil etildi.

Ijozatingiz bilan tadbir ishtirokchilari bilan tanishtirib o'tsam:

Aziz mehmonlar! Buyuk ijodkor hayoti va ijodi haqida yanada ko'proq ma'lumot olish uchun so'zni _____ga beramiz. Marhamat!

(Mutaxassis tomonidan shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi).

Olib boruvchi: Qiziqarli ma'lumot uchun katta rahmat. O'ylaymanki, tadbir ishtirokchilari ham Avaz O'tar haqida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Navbatni o'quvchilarimizga bersak, shoir ijodidan o'zlari yod olgan she'r va g'azallaridan namunalar aytib bersalar.

1-o'quvchi:

Yo'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,

Zulm tig'i birla bo'lgan bag'ri yuz ming pora xalq.
Bir necha avbosh bunda hukmronlig' aylasa,
Qolmag'ay ori na yanglig' mehnatu ozora xalq.
Ne alarda bor durur ilmu adolatdin asar,
Ne ajabkim, topmasa dog'i dilig'a chora xalq.
Etgan ofatni boshig'a doimo taqdir deb,
Hasratu armon bilan ketgusi bora-bora xalq.

2-o'quvchi:

Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat,
Topib ilmu hunar birla maorifdin nishon millat.
Vatanparvar — fidoiy firqalar to bo'lmayin paydo,
Na mumkin topmog'i o'lgan taniga toza jon millat.
Fido millat yo'lig'a molu jon etmak kerak har kim,
Bo'lay desa agar avlodi mashhuri jahon millat.

3-o'quvchi:

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab.
Dilu jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim bizni g'am, qayg'udin ozod etgusi maktab.
Ko'ngullarning sururi, dag'i ko'zlar nuridur farzand,
Alarning umrini albatta obod etgusi maktab.
Ota birla onaga farz o'qutmoq bizni majburiy,
Ki bizni yaxshilik qilmoqda mu'tod etgusi maktab.
Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,
Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi maktab.

4-o'quvchi:

So'rmadi holimni, yorab, oshnolardin birov,
Ul muruvvatsiz, sitamgar, bevafolardin birov.
Yor ko'yida qilib g'ammozlik izhorini,
Soldi boshimg'a qaro kun pur jafolardin birov.
Aylamaskim, aylasa gar ta'na jumla el manga,
Ko'rmadi hajr ichra man ko'rgan balolardin birov.
Baski qildi jabru, zulmu, qahru, kiynu ham itob,
Bovar aylab g'ayr so'zin dilrabolardin birov.

5-o'quvchi:

Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim.
Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.
Mani solsa fano yo'liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.
Umidim — yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir sheri jayonim.
Na yaxshi o'ylakim, ma'qulu manzur,
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

Olib boruvchi: Rahmat aziz o'quvchilar! Ma'rifatparvarlik g'oyalari keng targ'ib etish Avaz O'tar ijodiga xos xususiyatlardan biridir. SHoirni shunday bir she'ri bor:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.
G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilmu hunarlar rivoji andin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g'ayrat eting, foydali kondur.
Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'quganlar bori yaktoyi jahondur.
Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin ani bag'ri to'la qondur.

Ushbu she'r nafaqat o'sha davr uchun, qolaversa hozirgi kun yoshlari uchun ham bitilgandek go'yo. Xalqimiz «Til bilgan el biladi», deb bejizga aytmaydi. Ushbu she'r ham chet tillarini o'rganishga da'vat qilishi bilan muhimdir. Shoir tilni insonlar, turli millatga mansub kishilarni birlashtiradigan, do'stlashtiradigan «robitai olamiyon» - kishilarning aloqa vositasi deb ataydi. Shuning uchun ham o'zgalar tilini ona tilidek bilish «foydai kondir» deydi.

Endigi navbatni _____ ga bersak. Shoir ijodidagi qarashlar, yo'nalishlari, she'rlarining mazmun mohiyatlari haqida ma'lumot berib o'tsa, marhamat:

(Mutaxassis nutqi)

Olib boruvchi: Avvalo tashrif uchun, qolaversa foydali va kerakli ma'lumot uchun katta rahmat.

Navbatni yana o'quvchilarimizga beramiz, marhamat.

1-o'quvchi:

Bo'lg'ali ko'nglim sanga tokim asiru mubtalo,
Shavqu zavqingdin ishim chekmak fig'on subhu maso,
Toqatu hushu qaroru sabr o'lur mandin judo,
Orazu xolingni birdam ko'rmasam, ey dilrabo,
O'yladurmankim, ko'runmas ko'zima oqu qaro.

2-o'quvchi:

Yor bir yo'l ko'zlarim yoshini silmaydur hanuz,
Rashk ila shum muddaiy bag'rini tilmaydur hanuz,
SHahdi la'lidin o'luk jismim tirilmaydur hanuz,
G'unchalar ochildi, vah, ko'nglim ochilmaydur hanuz,
Bulbul oso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.

3-o'quvchi:

Garchi bordur olam ichra qoshlari shamshir ko'p,
Lek alar qilmas ul oydek ko'ngluma ta'sir ko'p,
Intizoridin bo'lubman hajr aro dilgir ko'p.
Va'dai vasl aylab erdi — ayladi ta'xir ko'p,
Yo ibo qildi va yo yodiga kelmaydur hanuz.

4-o'quvchi:

Izlab oni, fikr raxshin har sori sursam netong,
Ohu, faryodim yeti gardundin oshursam netong,
Xanjari hasratni har dam ko'ksima ursam netong,
Yuz nadomat birla emdi o'zni o'ltursam netong,
Sajda qilmoqqa boshim bir bor egilmaydur hanuz.

5-o'quvchi:

Fikri zulfidin sanga yuzlansa ming savdo, ko'ngul,
Rahm qilmas holinga naylay dili xoro, ko'ngul,
Qilmayin o'zni bori olam aro rasvo ko'ngul,
Boshing ol, ket, o'z payi vaqtingg'a ey, shaydo ko'ngul —
Kim, emassan xasta jonning hech dardiga davo.

Olib boruvchi: Rahmat aziz o'quvchilar, o'qishlaringizga omadlar tilaymiz.

Mana aziz mehmonlar bugungi tadbirimiz ham yakuniga yetmoqda. O'ylaymanki tadbirimiz sizlar uchun foydali va manfaatli bo'ldi. Tadbirni yakunlab berish uchun so'zni _____

_____ga
beramiz.

Olib boruvchi: E'tiboringiz va qadrli vaqtingizni ayamay tashrif buyurganingiz uchun katta rahmat. Sizlar bilan kelgusi tadbirlarda ham uchrashamiz degan umiddamiz. Xayr salomat bo'ling.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ҳаққул, Иброҳим. Ишқ дарди ва исён шоири : [Аваз Ўтар таваллудининг 135 йиллигига] / Иброҳим Ҳаққул // Тил ва адабиёт. – 2019. – № 7. – Б.10-12.

2. Аваз Ўтар // Маънавият юлдузлари. – Тошкент, 1999. – Б. 368-372.

3. Avaz O'tar (1884-1919) [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/avaz-utar-1884-1919/> erkin.

4. Avaz o'tarning ma'rifiy-axloqiy qarashlari [elektron resurs] // Kirish tartibi : <http://www.oyina.uz/kiril/generation/148> erkin.

5. Avaz O'tar uy-muzeyi [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/avaz-otar-uy-muzeyi-uz/> erkin.

6. Аваз Ўтар ўғлининг маърифий-педагогик қарашлари [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://library.navoiy-uni.uz/files/avaz%20o'tar%20o'g'lining%20ma'rifiy%20pedagogik%20qarashlari.%20rasulova%20feruza%20shavkatovna.pdf> erkin.

*Tuzuvchi: IMX yetakchi mutaxassisi
Z.Xalbekova*